

Yuristlar malakasini oshirish markazi

yuridik kadrlar salohiyatini oshirish yoʻlida

Mamlakatni 2022-2026-yillarda rivojlantirish tendensiyalari, shu jumladan, huquq tizimini rivojlantirish to‘g‘risida keng tasavvur beruvchi hujjat e’lon qilindi. Taraqqiyot strategiyasi davlatning inson bilan o‘zaro aloqasidagi qator muhim tamoyillarni o‘z ichiga olgan. Unda jami 94 ta maqsad qo‘yilgan bo‘lib, ularning ba’zilarini tahlil qilamiz.

Mamlakatimizda milliy davlatchilik va huquqiy tizimni mustahkamlashda zamonaviy fikrlaydigan va mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladigan malakali yuridik kadrlarning o‘rni beqiyos. Shunga ko‘ra, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash uzluksiz ta’lim tizimining mustaqil bosqichi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining shakllanish tarixi XX-asrning 40-yillariga borib taqaladi. O‘sha davrlarda respublikadagi huquqshunos kadrlarga bo‘lgan kuchli ehtiyoj tufayli, 1939-yilda O‘zbekiston SSR Adliya vazirligi qoshida yuridik maktab tashkil qilinib, unda sudyalarni tayyorlashga yo‘naltirilgan 6 oylik o‘quv kursi yo‘lga qo‘yilgan.

1947-yilga kelib sobiq Ittifoq Adliya vazirligi qoshida 9 oylik Sud va prokuratura xodimlarini tayyorlash O‘rta Osiyo kursi faoliyat ko‘rsata boshladi. Bu kurs Ittifoq miqyosidagi hududiy ta’lim muassasasi bo‘lib, u nafaqat O‘zbekiston uchun, balki Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari uchun ham sud va prokuratura sohasida kadrlarni tayyorlab berdi.

O‘zbekiston SSR Adliya vazirining 1971-yil 29-yanvardagi “Adliya xodimlari malakasini oshirish respublika kurslarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 20-buyrug‘i bilan adliya organlari xodimlari, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlarning sud a’zolari, tuman, shahar xalq sudlarining sudyalari, shuningdek, advokatlar, notariuslar, FHDY organlari hamda xalq xo‘jaligi yuridik xizmati xodimlari uchun 2 oylik malaka oshirish kurslari tashkil qilindi.

Mazkur muassasa O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so‘ng, ya’ni 1992-yil 12-noyabrda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish masalalari to‘g‘risida”gi 523-qarori bilan qayta tashkil etildi.

Keyinchalik, Adliya xodimlari malakasini oshirish respublika kurslari negizida Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 19-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari va sudlari faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 18-qarori bilan Sud va adliya organlari xodimlari malakasini oshirish instituti tashkil qilindi. Mazkur institutda sud va adliya organlari xodimlari malaka oshirib, qayta tayyorgarlikdan o‘ta boshladi.

> Malaka oshirish kurslarining institutga aylantirilishi bilan bu yerda ta’lim oladigan tinglovchilar soni sezilarli darajada ortdi. Xususan, avvallari malaka oshirish kurslarida bir yilda 150-200 nafar tinglovchi o‘qitilgan bo‘lsa, keyinchalik ularning soni 800-900 nafarga ko‘paydi.
>
> Zamon talablari asosida huquqshunos kadrlarni kasbiy va qayta tayyorlashni tubdan takomillashtirish maqsadida 1997-yil 21-iyulda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshida Yuristlar malakasini oshirish markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 364-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan Adliya vazirligi qoshidagi Adliya va sud organlari xodimlarining malakasini oshirish instituti negizida Yuristlar malakasini oshirish markazi tashkil etildi.

Mazkur qaror bilan markazda adliya, sud, prokuratura, advokatura hamda hokimiyat idoralari, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yuridik xizmatining oliy ma’lumotli xodimlari hamda huquqshunoslik fani o‘qituvchilarini 3 oylik kurslarda qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yosh mutaxassislar va rahbarlik lavozimiga zaxiraga

olingan xodimlarni 6 oylik maxsus kurslarda oʻqitish belgilandi. Shuningdek, qarorda oʻrta-maxsus yuridik ma'lumotli xodimlar uchun 4 haftalik malaka oshirish kurslarining tashkil etilishi nazarda tutildi.

Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 19-iyundagi 118-qarori bilan markazda zaxirada boʻlgan, ilk bor fuqarolik va jinoyat ishlari boʻyicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari raislari va sudyalari, okrug va hududiy harbiy sudlar raislari, rais oʻrinbosarlari va sudyalari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xoʻjalik sudlarining sudyalari lavozimlariga taqdim etilayotgan shaxslar uchun uch oylik maxsus kurslar tashkil etildi.

Ushbu davrda markaz tuzilmasida 4 ta kafedra (Fuqaroviy-huquqiy fanlar, Jinoiy-huquqiy fanlar, Davlat-huquqiy fanlar va Xalqaro-huquqiy va inson huquqlari fanlari kafedralari) va 7 ta boʻlim hamda xizmatlar tashkil etildi. Ularda 20 nafar professor-oʻqituvchi va 17 nafar boshqaruv xodimlari faoliyat olib bordi.

Markazda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga jalb qilingan tinglovchilar soni yiliga 2000 nafardan ortiqni tashkil etishi markaz professor-oʻqituvchilarining oʻquv yuklamasining ham oshishiga olib keldi.

Yuristlar malakasini oshirish markazi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida 2012-yil 28-martda Vazirlar Mahkamasining "Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tuzilmasini takomillashtirish toʻgʻrisida"gi 87-qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan markazga 8 ta shtat birligi qoʻshib berilib, shtatlar soni 45 taga yetkazildi. Markaz tuzilmasida Oʻzbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasi va Xalqaro aloqalar boʻlimi tuzildi.

Mazkur qaror ijrosi doirasida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 12-iyuldagi 212-qarori bilan Yuristlar malakasini oshirish markazining yangi ustavi tasdiqlandi. Markazda tinglovchilarni malaka oshirish kurslarida oʻqitish ikki haftadan bir oygacha va qayta tayyorlash kurslarida uch oydan olti oygacha qilib belgilandi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasi oʻlaroq, markazning xalqaro aloqalari rivojlantirildi. Xususan, BMTning Taraqqiyot dasturi, YXHTning Oʻzbekistondagi loyihalar koordinatori, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Germaniyaning Fridrix Ebert, Konrad Adenauer jamgʻarmalari, "Mintaqaviy muloqot" xalqaro notijorat tashkiloti, USAIDning Oʻzbekistonda sud-huquq islohoti boʻyicha dasturi kabi xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yoʻlga qoʻyildi.

2021-yil yakunida Yaponiya Adliya vazirligi huzuridagi ilmiy-tadqiqot instituti bilan markaz oʻrtasida ikki tomonlama hamkorlik bitimi imzolandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi "Davlat xizmatlari koʻrsatish tizimini jadal rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 3662-qarori bilan markazda davlat xizmatlari markazlari rahbar va xodimlarining oʻqitilishi yoʻlga qoʻyildi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-oktyabrdagi "Patent vakillari toʻgʻrisidagi nizomga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi 887-qarori bilan markazda intellektual mulk sohasidagi mutaxassislar, shu jumladan, patent



vakillari qayta tayyorlanmoqda va malaka oshirmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-yanvarda 3134-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Mediatorlarni tayyorlash dasturiga muvofiq markazda mediatorlarni tayyorlash kurslari yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-sentyabrdagi 544-qarori bilan markazda yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan barcha sohadagi mutaxassislar o‘qitilishi belgilandi. Shundan kelib chiqqan holda hozir markazda adliya organlari, Davlat xizmatlari agentligi, FHDY organlari, advokatlar, notariuslar, yuriskonsultlar, patent vakillari hamda xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlarning o‘zga soha mutaxassislari malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o‘qitilmoqda, mediatorlar tayyorlanmoqda.

Markaz faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2019-yil 27-iyun kuni Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 531-qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan Yuristlar malakasini oshirish markaziga yangi vazifalar yuklatildi va markazning yangi tasdiqlangan ustaviga muvofiq vazifalar va yo‘nalishlari aniqlashtirildi.

Markazda hozirgi kunda 3 ta kafedra mavjud.

- Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish kafedrasi;
- Xususiy-huquqiy fanlar kafedrasi;
- Ommaviy-huquqiy fanlar kafedrasi.

Bundan tashqari, markazda quyidagi bo‘limlar faoliyat yuritadi:

- Fan, innovatsiya va ta’lim dasturlarini ishlab chiqish bo‘limi;
- O‘quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilish bo‘limi;
- Ta’lim sifatini uslubiy ta’minlash, monitoring qilish va baholash bo‘limi;
- Buyurtmalar portfeli va marketingni shakllantirish bo‘limi;
- Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va masofadan o‘qitishni tashkil etish bo‘limi;
- Xalqaro hamkorlik bo‘limi;
- Tahririy-nashriyot bo‘limi;
- Ma’muriy xo‘jalik va mehnatni muhofaza qilish bo‘limi.

Shuningdek, markaz filiallari, buxgalteriya, Axborot-resurs markazi va kadrlar bo‘yicha katta inspektor faoliyat ko‘rsatadi.

Markazning asosiy maqsadi sifatida adliya organlari hamda advokatura xodimlarini, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar tashkilotlarning yuridik xizmati xodimlari (yuriskonsultlari) hamda ularga tenglashtirilgan boshqa soha mutaxassislari malakasini oshirish va qayta tayyorlashdan iboratligi belgilandi.

Markazda 1997–2021-yillarda 34 mingdan ortiq tinglovchi qayta tayyorlanib, malakasi oshirildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan jami 246 nafar huquqiy sohani yorituvchi jurnalistlar hamda OAV vakillari malakasi oshirildi. Bundan tashqari, viloyatlarda faoliyat olib borayotgan yuridik kadrlarga sayyor o‘quv kurslari tashkil etildi.

Adliya vazirining 2019-yil 31-yanvardagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Mediatorlarni tayyorlash dasturi”ga muvofiq markazda professional mediatorlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun bir oylik maxsus kurs tashkil etildi. Ushbu kursni tamomlagan 775 nafar huquqshunosga mediatorlik sertifikati topshirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi “O‘zbekiston Res-





publikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4380-qaroriga muvofiq markazga intellektual mulk sohasidagi kadrlarning malakasini oshirish va patent vakillarini tayyorlash bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar yuklatildi.

Markazdagi mashg‘ulotlarga tinglovchilarning rahbarlik va vaqtni samarali tashkil etish, boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan “Vaqtni idora etish va ish jarayonini samarali tashkil qilish”, “Nizoli vaziyatlarni hal etish”, “Fuqarolar va protses ishtirokchilari bilan muloqotda bo‘lish ko‘nikmalari”, “Boshqaruv ko‘nikmalarini o‘stirish”, “Ish joyida stressni idora eta bilish”, “Notiqlik madaniyati”, “Yuridik nutq madaniyati”, “Yurist kasb etikasi” kabi mavzular kiritilgan.

Bundan tashqari o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, innovatsion uslublardan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Tinglovchilar uchun mashg‘ulotlar yuqori darajada olib borilishiga o‘quv xonalari, zamonaviy yozuv vositalari, slayd-taqdimot va videoroliklar namoyish qilish uchun katta ekranli televizorlar ajratilgan.

Shuningdek, mashg‘ulotlarni amaliyot bilan chambarchas bog‘lash maqsadida, markazda maxsus jihozlangan “Sud majlisi zali” va “Mediator xonasi” kabi o‘quv xonalari tashkil etilgan.

Mashg‘ulotlarga salohiyatli, yuqori malakali pedagoglar bilan bir qatorda mamlakatimizning yetakchi olimlari, mutaxassislari, parlament a’zolari, Adliya vazirligi, Konstitutsiyaviy sud, Bosh prokuratura, Respublika sud ekspertizasi markazi, Advokatlar palatasi va boshqa davlat organlari hamda jamoat birlashmalarining tajribali amaliyotchi xodimlari jalb etilmoqda.

Markazning professor-o‘qituvchilari tomonidan keyingi uch yil ichida 20 dan ortiq monografiya, darslik, o‘quv va o‘quv-amaliy qo‘llanmalar, 100 ga yaqin ilmiy maqola va tezislar chop etilgan. Markazning professor-o‘qituvchilari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda munosib ishtirok etishmoqda.

Markaz professor-o‘qituvchilari xalqaro va respublika miqyosida tashkil etilgan nufuzli konferensiya, ilmiy-amaliy seminar, davra suhbatlarida ma’ruza va chiqishlari bilan faol qatnashib, mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

2020-yilning yanvar oyidan boshlab, markazda ilk marotaba masofaviy ta’lim patformasi orqali malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yildi, bu jarayonni takomillashtirish va kengaytirish borasidagi ishlar davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari, markazda Oliy attestatsiya komissiyasining 2020-yil 27-feraldagi 25-qarori bilan 12.00.10 – xalqaro huquq ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori va fan doktori ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengash tashkil etildi. Kengash qoshida ilmiy seminar hamda malakaviy imtihonlar olish komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Prezident administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida markazning rasmiy veb-sayti ommaviy axborot vositasi sifatida hamda “Yurist axborotnomasi” jurnali elektron jurnal sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Markazning “Yurist axborotnomasi” elektron jurnali OAK rayosatining qarori bilan dissertatsi-



yalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritildi. Mazkur jurnal barcha xalqaro standartlarga toʻliq javob beradi hamda AQSHning “Crossref.org” tizimiga kiritilishi bilan bir qatorda har bir maqolaga “doi” raqami beriladi.

Markaz tinglovchilari, professor-oʻqituvchilari hamda xodimlari Axborot-resurs markazida mavjud boʻlgan 8000 dan ortiq kitobdan, Lex.uz, Norma, Yurida kabi huquqiy axborot tizimlaridan keng foydalanib kelishmoqda. 2021-yilda Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston milliy kutubxonasi va Yuristlar malakasini oshirish markazi oʻrtasida tuzilgan hamkorlik memorandumiga asosan “EBSCOhost” xorijiy maʼlumotlar bazasiga ulanish hamda markaz professor-oʻqituvchilari va xodimlariga milliy kutubxona hududida 5 ta maʼlumotlar bazasidan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Alohida qayd qilish lozimki, 2020-yil 8-sentyabr kuni Vazirlar Mahkamasining “Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislar malakasini oshirishning zamonaviy tizimini joriy etish choratadbirlari toʻgʻrisida”gi 544-qaroriga muvofiq markazning Qoraqalpogʻiston Respublikasi hamda viloyatlarda hududiy filiallari tashkil etildi.

Yuristlar malakasini oshirish markazida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi toʻgʻrisidagi nizom hamda Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qoʻyiladigan davlat taʼlim talablari tasdiqlandi.

Qaror asosida markazda taʼlim jarayonini axborotlashtirish va raqamlashtirish yanada takomillashtirildi. Markazda malaka oshirish kursi bitiruvchilariga elektron sertifikat berish amaliyotini joriy etish maqsadida noyob identifikatsiya raqami QR-kod hamda himoya elementlarini nazarda tutuvchi “Elektron sertifikatlar repozitoriyasi” tizimi va dasturiy taʼminoti va onlayn shartnoma tuzish tizimi ishga tushirildi.

Markaz taʼlim jarayoniga raqamlashtirish siyosatining joriy etilishi, masofaviy taʼlim platformasi hamda kredit-modul tizimi ishga tushirilishi natijasida birgina 2020/2021-oʻquv yili davomida 10 628 192 052 soʻm davlat mablagʻini tejab qolishga erishildi.

Qaror bilan markazga xoʻjalik birlashmalari va boshqa tashkilotlarning mehnat bozorida huquqiy bilimlarini oshirish talab qilinadigan oʻzga soha mutaxassislari malakasini oshirishga qaratilgan qisqa muddatli oʻquv kurslarini tashkil etish vazifasi qoʻyildi. Shu maqsadda hozirgi kunda markaz tomonidan 40 dan ortiq qisqa muddatli kurslarning oʻquv dasturlari ishlab chiqildi. Shuningdek, kadrlar buyurtmachilari va xodimlariga malaka oshirish shakllarini mustaqil tanlash imkoniyati yaratildi.

Qarorning diqqatga sazovor yana bir jihati shundaki, mamlakatimizda ilk bor malaka oshirish tizimiga xalqaro standartlarni hisobga olgan an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy oʻqitishning uygʻunlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan shakllari, shuningdek, kadrlar malakasini oshirishning kredit-modul mexanizmi joriy qilindi.

Bundan tashqari malaka oshirish jarayonlarida xodimlarning ijodiy faoliyati ragʻbatlantiriladigan boʻldi. Jumladan, xodimlar tomonidan ijod mahsuli sifatida tayyorlangan ilmiy maqolalar, monografiya, darslik va oʻquv qoʻllanmalari malaka oshirish kurslarini tashkil etish jarayonida tegishli kredit ballari sifatida hisobga olinadi hamda falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga ega boʻlish oʻz navbatida xodimni malaka oshirish kurslarini oʻtashidan ozod qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Yuristlar malakasini oshirish markazi yuristlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish faoliyatida jahon andozalari hamda zamonaviy standartlarga mos keladigan taʼlim muassasasiga aylanmoqda.

Nigora KARIMOVA,
YUMOM matbuot kotibi, ARM mudiri



Intellektual mulk agentligi

salohiyat – ishonchli himoya – investitsion joziba

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq fan taraqqiyot va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga, intellektual mulk huquqi himoyasini ta'minlashga e'tibor qaratildi.

Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 19-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasiga patent-litsenziya ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish huquqi berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-martdagi “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra Davlat patent idorasi Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o‘tkazildi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24- maydagi “O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan intellektual mulk sohasida bir-biridan mustaqil faoliyat yuritib kelgan Davlat patent idorasi hamda O‘zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish agentligi negizida Intellektual mulk agentligi tashkil etildi.

Intellektual mulk obyektlariga nisbatan ishonchli huquqiy muhofazani ta’minlash hamda samarali tizimni joriy qilish maqsadida 2019-yil 8-fevralda “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori asosida Intellektual mulk agentligi Adliya vazirligi tizimiga o‘tkazildi. Mazkur qaror sohani yanada takomillashtirish, tizimda shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash, samarali davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yaratish, intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga barham berishda muhim asos bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida agentlik intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilandi, sohada aniqlangan qonunbuzilishlar, ularning sabablarini bartaraf etish haqida taqdimnomalar kiritish, kadrlar siyosatini olib borish maqsadida Toshkent davlat yuridik universitetida “Intellektual mulk huquqi” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura yo‘nalishini ochish va Yuristlar malakasini oshirish markaziga intellektual mulk sohasidagi kadrlarning malakasini oshirish vazifasi belgilandi.

Bugungi kunda Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi intellektual mulk obyektlarini muhofazalash, kontrafakt mahsulotlarga qar-